

## YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MAHALLA INSTITUTINING O'RNI

Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasи o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714255>

**Annotatsiya.** Zamona niy O'zbekiston mahallalarida ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda mahallaning o'rni masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu institut mahalla aholisi farovonligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish va yordamga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, yoshlar, mahalla, ayollar, ayollar daftari, yoshlar daftari.

Yangi O'zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yetuk barkamol avlodni voyaga yetkazish jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar orasida turli xil salbiy illatlar keng tarqalayotgan bir davrda bu masala kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bevosita bu yo'nali shlardagi ishlarda mahalla intitutining roli beqiyos va ajralmasdir. Qadimdam mahalla tarbiya o'chog'i, urf-odat va an'analarni keying avlodga yetkazib beradigan ko'priq vazifasini bajargan. "Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishslash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi<sup>1</sup>". Inson uchun jamoaning fikri muhim bo'lib kelgan. Inson yon atrofdagilarining fikriga qulq solgan, jamoaning nazorat qiluvchi roliga bo'ysungan.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-sonli "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida", 2018-yil 25-sentabrdagi PF-5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmonlari mamlaktimizda yoshlarga berilayotgan e'tiborning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Germaniyalik siyosatshunos Artur Faynberg "Mahalla-inson huquqlarini himoya qilgan holda yoshlarni tarbiyalashga, ularni kamol toptirishga ko'mak beruvchi jamiyat instituti" -deb ta'kidlaganda naqadar haq edi. Mahalla institut ijtimoiy ko'lamiga ko'ra noyob tuzilmadir. Bu jahon tajribasida juda kam uchraydigan, amalda o'zini oqlaydigan va faqat bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan hamda jahon katta qiziqish bilan qarayotgan institutdir. Shu sababli ham bugungi kunga kelib bu noyob ijtimoiy tuzilma Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy tadqiqot institutlari, xalqaro ekspertlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq qilinmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar tarbiyasini har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабрь.

<sup>2</sup> Xaqnazarov.X.D. O'zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)diissertatsiyasi Avtoreferati.T.,2019

Yoshlar ma'naviyatiga, ichki olamiga terrorchilik, ekstrimizm, kiber jinoyatlar salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir davrda mahallaning tarbiyalovchi funksiyasi muhim hisoblandi. Bu institut barkamol avlodni tarbiyalashda tayanch markaz vazifasini o'tamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh assambleyasida nutq so'zlab "...yoshlarning ong-tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo'rvonlik bilan bo'g'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Mamlakatimi aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlar uchun naqadar daxldor ekanligini anglaymiz. Har bir davlatning ertangi kuni, kelajagi, albatta, yoshlar qo'lidadir. Shuni inobatga olib, har bir mamlakatning oldiga qo'ygan vazifalaridan eng kattasi bu-ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish hisoblandi. Bunday yukasak, mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda an'analar beshigi hisoblangan mahallaning o'rni beqiyos, albatta. Jamiyatning faol ijtimoiy qatlami sifatida yoshlar turmush tarzi strukturasini – ularning kundalik faoliyati, an'anaviy mashg'ulotlari va qiziqishlari, oilaviy munosabatlarning sub'yekti sifatidagi vazifalari, bo'sh vaqtga munosabati va undan foydalanish madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rni, etnomadaniy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida modernizasiyalashuv sharoitidagi transformasiyalarga, globallahuv jarayonida jamiyatga ijtimoiy moslashuviga oid munosabatlar tizimi tashkil etadi. Yosh kategoriyalari tasnifi dunyo mamlakatlarida turlicha bo'lib, jumladan, AQSHda 14–29 yoshli fuqarolar, Germaniyada 14–27 yoshli ijtimoiy qatlam, aksariyat Yevropa mamlakatlarida 15–29 yoshlardagi aholi, Buyuk Britaniya va Niderlandiyada alohida guruhga ajratilmasada, 25 yoshgacha bo'lganlar, Ispaniya, Rossiyada esa 14–30 yoshgacha bo'lgan demografik guruh a'zolari yoshlar ijtimoiy qatlamini tashkil etadi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 3-moddasida "yoshlar (yosh fuqarolar) – o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar" tarzida qayd qilingan Yangi O'zbekistonda mahalla boshqaruvida yoshlar bilan ishslashning o'ziga xos tizimi yaratilmoqda, unga ko'ra yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar "Yoshlar daftari", "Yoshlar portal" electron platformalariga kiritilib, ular bilan samarali ishslash tashkil etilgan. Ma'lumotlarga qaraganda maktabni bitirib, uyda ishsiz qolayotgan yoshlar orasida ayollar salmog'I ancha yuqori 51 foizni tashkil etadi. 18 yoshga yetgan dan keyin ushbu k'rsatkich yanada yuqorilab 71 foizga yetmoqda<sup>1</sup>. Joriy 2023-yilda Buxoro viloyatida 534 ta maktablarda 21 ming 944 ta yosh maktabni tugatib, kata yo'lga qadam qo'ymoqda. Bu yoshlar bilan manzilli ishslash yoshlar yetakchisi zimmasida bo'ladi. Yoshlar bo'sh vaqt deganda ishdan (mehnat faoliyatidan) tashqari vaqtini (34,1 %), dam olish vaqtini (19,1 %), o'qishdan ortgan vaqtini (17,3 %), uy ishlaridan ortgan vaqtini (16,4 %), bekorchilik vaqtini (7,3 %) va faqatgina 11,8 % i biror ishni bajarish uchun oldindan rejalshtirilgan vaqtini tushunadi. Demak, yoshlar orasida kundalik hayotni rejalshtirishda qator tushunmovchiliklar mavjudki, bu holat ular orasida vaqtini to'g'ri taqsimlash rejasи mavjud bo'limgani bois, aksariyat holatlarda mazkur vaqtidan hech qanday samaraga erishilmasligi bilan tugaydi. Bunda mehnat faoliyatida ham ko'pincha ijro intizomiga rioya qilmaslik ham taqsimotdagи boshqa vazifalarning umuman rejalshtirilmay qolishi va amalga oshirilmasligiga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, sotsiologlar tomonidan XX asr oxirlarida yoshlarning bo'sh vaqtidan samarali foydalanishning 500 dan ortiq turi hisoblab chiqilgan. Yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtini uyda (79,4 %), ma'lum bir qismi esa uydan tashqarida (20,6 %) o'tkazadi.

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/mahalladagi-yoshlar-etakchisi-hududlardagi-ogil-qizlarning-muammosini-hal-etishda-koprik-vazifasini-otaydi>

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning 74,4 % i bo‘sh vaqtida bajaradigan ishlarni oldindan rejalashtiradi, 25,6 % i esa vaziyat va sharoitga qarab yo‘l tutar ekan. Yoshlar bo‘sh vaqtlarini kitob o‘qishga (25,5 %), yosh oilalarda esa farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishga (20,5 %), do‘sit va yaqinlar bilan o‘tkazishga (18,6 %), shuningdek, ko‘pchilik yoshlar o‘z bo‘sh vaqtini Internet tarmoqlarida (18,2 %) o‘tkazsa, ayrimlari televizor ko‘rish yoki radio tinglash (17,7 %) uchun sarflaydi<sup>1</sup>. Aslida, bo‘sh vaqtga munosabat va uni o‘tkazish yuqorida gilar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, yoshlar, shu jumladan, kattalar orasida ham berilgan javoblarning ko‘pchiligidagi mashg‘ulotlarni ular asosiy vaqtlarida ham amalga oshiradilar. Mazkur jarayonda vazifa va mashg‘ulotlar aralashib ketadi va natijasi ham samarasiz bo‘ladi. Shu bois yoshlar avvalo, bo‘sh vaqt nimaligi, uning favqulodda va rejalashtirilgan usullaridan qanday foydalanishlarini va uni oldindan rejalashtirishga asosiy urg‘uni berishlari lozim bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yosh xususiyatlaridan qat’iy nazar, kunlik, haftalik, oylik yuklamalar bajarilganidan so‘ng albatta, madaniy ko‘ngilochar ob’yektlar – kinoteatr, teatr, muzey, konsertlar va boshqa shu kabi maskanlarga ishdan tashqari holda erkin faoliyatda bo‘lish, vaqtini oila a’zolari bilan o‘tkazish, yangi ish haftasiga har tomonlama sog‘lom ruhda tayyorgarlik ko‘rish maqsadida tashrif buyurishlari an’anaga aylangan. O‘zbekiston yoshlarining bu boradagi ko‘rsatkichlari (8,2 %) ancha past darajani tashkil etadi. Buning o‘ziga xos ob’yektiv va sub’yektiv sabablari mavjud. Yoshlarning 22,9 % i madaniy ko‘ngilochar maskanlarga oxirgi marta qachon tashrif buyurgani haqidagi savolga javob berishga qiynalgan. Jumladan, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, ularni 3 toifaga ajratish, ular bilan manzilli, aniq mezonlar asosida ishslash tizimini yaratish zarurligi ta’kidlangan. Bunda o‘z ustida ishlaydigan, a’lo baholarga o‘qiydigan, o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygani holda ish joyiga ega bo‘lgan iqtidorli va ijtimoiy faol yoshlarni “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol, kelajakka ishonuvchi yoshlarni “o‘rta” toifaga, shuningdek, davlatning g‘amxo‘rliji va e’tiborini kutayotgan, ko‘makka muhtoj yoshlarni “ahvoli og‘ir” toifaga alohida ajratib, ular bilan tizimli ishslashga doir aniq chora-tadbir ishlab chiqilmoqda. Buxoro tumani “Qavola Mahmud” MFY da aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ishsizlikni bartaraf etish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan ishlar ham ham amalga oshirildi. Statistik ma’lumotlardan ko‘rinishicha, 2022 yilda olib borilgan ishlar natijasida “Temir daftar” dan 98 nafar, “Ayollar daftari” dan 77 nafar fuqaro, “Yoshlar daftari” dan 36 nafar yigit-qiz chiqarilgan. Ularga o‘zlari ishlab, daromad topishlari uchun sharoit yaratib berilgan.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasi tahlil qilinganda Respublikada yoshlar muntazam ravishda urf-odat va an‘analarga rioxalarga qilib, ularning ishtirokchilaridan hisoblanishlari aniqlandi. Xususan, O‘zbekiston yoshlarining asosiy qismi (65,6 %) doimiy ravishda mazkur an‘analarga amal qilib kelsa, ma’lum bir qismi (26,6 %) faqat imkon bo‘lgan vaqtlardagina bajarishini ma’lum qilishgan. Yoshlar yashab turgan mintaqada qabul qilingan an‘analar, urf-odatlarga amal qilishiga sabab sifatida, qadriyatlarning ota-bobolardan meros bo‘lib qolganligi, ularni asrash va keyingi avlodlarga yetkazish mas’uliyatini keltirishadi (65,6%). Shuningdek, ularning fikricha, an‘ana, urf-odat va marosimlar xalqning hayotini, uning o‘ziga xosligini saqlashga va ma’naviy oziqlantirishga yordam beradi (50,5 %).

<sup>1</sup> ХАКНАЗАРОВ ХУДОЙБЕРДИ ДИЛМУРОДОВИЧ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИНГ КУНДАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ /Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент – 2019

Nikoh to‘yi (75,9 %), xudoyi (39,1 %), nahorgi osh va janoza (19,1%), beshik to‘y (14,5 %), sunnat to‘y (11,8 %) larda yoshlarning ishtirokini nisbatan ko‘proq ko‘rish mumkin. Ammo, an’anaviy xalq bayramlari va sayillarida ishtirok etish (10,2%), mustaqil ravishda umumxalq hasharlarida qatnashish (5,7%) umummilliylar an’analarda ishtirok nisbatan past darajada, avvalo, mazkur masalalarga hududiy nuqtai nazardan qaratiladigan e’tibor hamda yaratilgan shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan so‘rovnomalar va kuzatuvlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, zamonaviy yoshlar kundalik turmushida etnografik xususiyatlar va o‘zgarishga oid qator tendensiyalar mavjud. Bu borada yoshlarning urf-odat va an’analarni anglash darajasi, unga rioya qilishning me’yor va mezonlari inobatga olinadi<sup>3</sup>. jonlanlatirash va ularning tasirini kuchaytirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sadullayev, U. (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(4), 376-385.
2. Sadullayev, U. (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(4), 376-385.
3. Sadullaev , U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(5), 344–352.
4. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo‘latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. Modern Science and Research, 3(12), 1228-1238.
5. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. Modern Science and Research, 3(12), 994-1003.
6. Sadullayev, U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. Modern Science and Research, 3(2), 902-910.
7. Toshpo‘latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 3(12), 985-993.
8. Shokir o’g’li, S. U. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 480-485.
9. Sadullayev, U. . (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. Modern Science and Research, 3(1), 607–613.
10. Shokir O’g’li, S. U. (2023). The importance of the mahalla system’s reformations in new Uzbekistan. International Journal Of History And Political Sciences, 3(10), 25-30.
11. Sadullayev , U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. Modern Science and Research, 2(10), 488–493.
12. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. Modern Science and Research, 2(12), 722–727.
13. Shokir o’gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 554-559.

<sup>3</sup> Xaqnazarov.X.D. O’zbekiston yoshlaringin kundalik turmush tarzi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)diissertatsiyasi Avtoreferati.T.,2019

14. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 554-559.
15. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 30-35.
16. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In Oriental Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
17. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. Journal of new century innovations, 35(1), 79-80.
18. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. Modern Science and Research, 2(10), 755–757.
19. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 132–135.
20. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(1), 59–67.
21. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 52–58.
22. Sadullayev , U. (2024). Zamonaviy o'zbek mahallalarida ijtimoiy o'zgarishlar. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(10), 284–294.
23. Umidjon, S. (2024). "MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI". *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 148-153.
24. Sadullayev, U. (2024). TARIX DARSLARIDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 600-608.
25. Sadullayev, U., & Bekmurodova, F. (2025). JADIDCHILIK HARAKATI VA ABDURAUF FITRAT. *Modern Science and Research*, 4(3), 675-679.
26. Sadullayev, U. (2025). ZAMONAVIY O'ZBEK MAHALLALARIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1735-1743.
27. Sadullayev, U. (2025). MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA UNING TURKISTON JADIDCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. *Modern Science and Research*, 4(1), 463-470.
28. Sadullayev, U., & Nurnazarov, A. (2025). MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 846-850.
29. Sadullayev, U. (2025). ALISHER NAVOIY VA UNING INSONPARVARLIK G'OYALARI. *Modern Science and Research*, 4(3), 965-973.
30. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA 1900-1910-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT. *Modern Science and Research*, 4(1), 68–76.
31. Sadullayev , U. (2024). Zamonaviy o'zbek mahallalarida ijtimoiy o'zgarishlar. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(10), 284–294.
32. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 52–58.

33. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 59–67.
34. Haqqulov, M. (2025). NARSHAXIYNING" BUXORO TARIXI" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1036-1045.
35. Haqqulov, M. (2025). THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN HISTORICAL ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 4(4), 467-474.
36. Haqqulov, M. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Modern Science and Research*, 4(3), 584-593.
37. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE TEACHER-STUDENT RELATIONSHIP BETWEEN IMAM AL-BUKHARI AND IMAM AT-TIRMIDHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 440-447.
38. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Muyiddinov, B. (2025). SHARAFIDDIN ALI YAZDINING "ZAFARNOMA" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 398-408.
39. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.
40. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
41. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
42. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
43. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldasheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO 'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81-91.
44. Sayfutdinov, F. (2025). 1918-1920 YILLAR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXIDA VERSAL – VASHINGTON KANFRENSIYALARINING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1066–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68491>
45. Sayfutdinov , F., & Sharipov , D. (2025). CENTRAL ASIAN INTEGRATION: HISTORICAL DEVELOPMENT AND PROSPECTS. *Journal of Universal Science Research*, 3(1(Special issue)), 300–304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/65623>
46. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
47. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
48. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.

49. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSSI. Modern Science and Research, 3(12), 852-858.
50. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(9), 1-5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
51. Sayfutdinov , F. . (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. Journal of Universal Science Research, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>
52. Sayfutdinov , F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. Modern Science and Research, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>
53. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 159-165.